



ISSUES OF CRITICAL STUDY OF CHRISTIAN SOURCES IN THE MUSLIM WORLD

Zilola Toirova,

International Islamic Academy of Uzbekistan

A student of "Religious studies"

Research advisor: **Odiljon Ernazarov,**

International Islamic Academy of Uzbekistan

Associate Professor of the UNESCO Department of Religious Studies and Comparative Study of World Religions, Doctor of Philosophy in History (PhD)

ABSTRACT: In this article, one of the famous scientists of the Muslim world, Dr. Yusuf Muhammad As-Siddiqi, the account of his study of the Christian religion, has been described, including his critical views on the study of Christian sources. During the article, the reader will get acquainted with interesting information about the history and components of Christian religious sources.

KEYWORDS: Sharia, the Holy Book, inspiration, Saint Peter, Bible, Apostle.

Doktor Yusuf Mahmud Muhammad As-Siddiqiy 1956-yil Qatar davlatida tug'ilgan. U 1981-yil Al-Azhar universiteti Din asoslari (Usul ad-din) fakultetining falsafa va ta'limot yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasiga, 1988-yil Dorul-Ulumda Islom falsafasi bo'yicha magistr darajasiga va 1991-yilda Islom falsafasi doktori darajasiga erishgan. 1999-2018-yillar oralig'ida Qatar universitetida kafedra mudiri, dekan yordamchisi, shuningdek Shariat va Islomshunoslik fakulteti dekani lavozimlarida faoliyat yuritgan. Islom falsafasi kafedrasi dotsenti, 2003-yildan beri Doha Xalqaro Dinlararo Muloqot markazi kengash a'zosi hisoblanadi.

Uning bir qancha muhim kitoblari bor, jumladan: "Saqofat ul-unfi bayna as-suhuniyyati-l-masihiyati va-l-usuliyyati al-islamiyati", "Ussusu nazoriyyati-l-ma'rifati bayna fikru ad-diniyyi va al-falsafiyyi", "Manahaj ul-bahsi", "Ar-roddu ala al-mantiqiyyina li Ibn Taymiya: dirosatun va tahqiqun" va boshqalar.



Doktor Yusuf Mahmud Muhammad As-Siddiqiy 2012-yil *Qatar universitetining "Shariat va islomshunoslik kolleji jurnali (JCSIS)"* da "Aqidatu ad-diyani-l-masihiyyati: qiroatun naqdiyyatun" (Xristian diniy ta'limotini tanqidiy o'qish) ¹deb nomlangan tadqiqot maqolasini nashr ettirgan. Ushbu maqola dinlarni umumiy – missionerlik va ibtidoiy dinlarni o'rganish, ularning rivojlanishi va o'zgarishlarini kuzatish, bir din qanday qilib guruh, mazhab, yo'nalishlarga bo'linganini, keng tarqalganini sabablarini aniqlash maqsadida yozilgan. Shu sabab tadqiqotchi maqola avvalida e'tiqodning rivojlanishida ruhoniylarning o'rnini ko'rsatishdan boshlagan. Maqola xristian ta'limoti, xristian e'tiqodining keng tarqalishi, katolik cherkovida aqida tushunchasi, qadimgi insoniyat sivilizatsiyalarida e'tiqod tushunchasi, vahiy va ruhoniylilik ilhomi, dinlarning muqaddas kitoblari bilan bog'liq qarashlar va tadqiqot natijasi sifatida umumiy 10 xulosani o'z ichiga oladi. Biz yuqoridagi mavzular orasidan olimning aynan muqaddas kitoblar borasida bildirgan fikrlarini kengroq mushohada qilishga harakat qildik.

Olim xristian diniy manbalarining yuzaga kelish tarixi haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Dinlar Muqaddas kitobni vahiyga asoslangan deb bilishadi. Biroq dinshunos olimlar va din tarixchilari bu kitoblarni butunlay ilhomga asoslanganligiga shubha bilan qarashadi. Ularning fikricha bu Muqaddas kitoblarning asoslari ilhomga asoslangan bo'lishi mumkin. Ular insonlar tomonidan va ularning ma'lum darajada aralashuvi asosida yaratilgan deb o'ylashadi. Loisy² Muqaddas kitobning Eski Ahdini Musoning kitobiga nisbatan o'rganib, tanqid va tahlil qilganida kuchli namoyon etib bergan. Loisy aytadi: Xudo Muqaddas kitobning muallifi, shuningdek Rimdagi Avliyo Pyotr sobori va parijsdagi Notr-Damning me'moridir. Lekin Allohni kitob yozgan deb tasavvur qilasiz. Bu shubhasiz bolaning tasavvurida eng keng tarqalgan antropofomizmning bir turidir. Biroq insoniyat bundan ko'ra soddaroq tasavvurga tushib qolmaganiga rozi bo'lishimiz kerak. Chiqish kitobi 31-bob, 18-sonda o'qiymiz: "Va Musoga Sinay tog'ida u bilan gaplashib bo'lgandan so'ng, Guvohlik lavhasini, Alloh barmoqlari bilan yozilgan toshdan bo'lgan ikki lavhani berdi"³. Bu yerda personifikatsiya,

¹ <https://qspace.qu.edu.qa/handle/10576/4366>

² Alfred Firmin Loisy (1857 – 1940) frantsuz Rim-katolik ruhoniysi, professor va ilohiyotshunos, odatda Rim-katolik cherkovida modernizm asoschisi sifatida e'tirof etilgan. U muqaddas kitobni talqin qilishning an'anaviy qarashlarini tanqid qilgan va Bibliyadagi tanqid Bibliyani diniy talqin qilish uchun foydali bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan.

³ Simples ncflexioms, Paris. 1908, 42-b.



o'xshatish va antropoformizmning cho'qqiga chiqqan namunasini ko'ramiz. Shuningdek Eski Ahdda, ayniqsa, "Qonunlar lavhasi" bilan birga Yangi Ahdda Xudoning o'zi tomonidan yozilgan va farishtalardan biri tomonidan nozil qilingan yozma qismlar haqida gapirilgan.⁴

Olim payg'ambarlarga tegishli kitoblar matnlarida o'zgarishlar borligi - tan olinishi kerak bo'lgan haqiqatlardan biri ekanini aytadi. Buning isboti sifatida Muqaddas kitobni to'liq o'qish uning qismlari tuzilishiga ko'ra o'ziga xos birlik ta'suratini qoldirishini keltiradi. Davomida shu mavzuda tadqiqot olib borgan boshqa olimlarning izlanish natijalari ham keltirib o'tadi. Jumladan, XVII- XIX-asr davomidagi Richard Simonning Tavrot borasidagi tadqiqoti. Natijada to'g'ridan-to'g'ri Yahve tomonidan vahiy qilingan, Muso (a.s.) ga tegishli kitob bir qancha matnlarning o'ylamasdan uydirilishidan boshqa narsa emasligini ko'rsatdi. Uning mazmuni, shuningdek, turli sivilizatsiya va dinlardagi ta'sirini ko'rsatdi.⁵ Ya'ni ularning barchasi Tavrot muallifligini Muso (a.s.) ga nisbat berish mumkin emasligini, aksincha u Muso (a.s.) yashagan deb hisoblangan davrdan ancha keyin, boshqa bir davrda tuzulganini isbotladi.⁶

Kaldoniylar bosqinidan avval yahudiy diniga oid bir yoki bir nechta muqaddas kitoblar to'plami mavjud edi. Masalan, Ezra va Maxiysaga tegishli to'plam. Masala shu bilangina to'xtab qolmadi, balki yahudiylik diniga oid kitoblar paydo bo'lishda davom etdi. Ularning barchasi cherkov yoki ibodatxona qonunlarida o'z o'rniga ega bo'lishga intildi. U yoki bu kitobni uning bir qismi deb hisoblash huquqiga ega bo'lgan hokimiyat ustidan, xususan mil.avv II asrdan boshlab to'qnashuvlar avj oldi. Biroq nasroniylikning birinchi asri oxiriga kelib, Hizqiyo, Voiz, Qo'shiqlar, Ester va Hikmatlar kitobiga qarshi katta etirozlar paydo bo'ldi. Shu sabab ushbu kitoblar asta-sekin yahudiylik ibodatxonalariga yuklandi. Shundan so'ng ravvinlar Iskandariya ma'badining Kanon qonunlari tarafdori bo'lishdi. Olim bu yerda ham ularning kitoblar to'g'riligini isbotlaydigan yagona va aniq standartlarga ega bo'lmaganliklarini sabab sifatida keltiradi.

So'ngra olimning Yangi Ahd qismi yuzasidan bildirilgan fikrlarini ko'ramiz. Xossotan Injilga alohida to'xtalib, u o'zini aniq xabar sifatida taqdim etishi, ya'ni ilhomga

⁴ Doktor Vilgelm Rudolf, "Silat ul-Qur'ani bil-yahudiyyati val-masihiyati" 63-bet

⁵ Unga qadimgi Hind, Yunon, Misr dinlari tasir ko'rsatganidek, bu aqida tomondan juda aniq.

Bu borada: Doktor Abu Zahro: "Muqoronat ul-adyanid-diyana-ti-l-qodima", Dar ul-fikri-l-arobiy nashriyoti, 1965-yil, Misr

⁶ Doktor Aliy Abdulvohid Vafiy: "Yahudiyyatu val-yahud" 17-bet

Charl Genibert: "Tatovvur ul-aqid" 95-96-bet



asoslanganligini va o'quvchiga to'liq bilim bera olishini takidlaydi. To'rt Injil mazmuni Iso Masihning hayoti tarixi bilan bog'liq bo'lib, ularning qolgan xabarlar bilan birgalikdagi to'plami Yangi Ahd deb nomlanadi.

Olim ushbu Injillar haqida batafsiz ma'lumot berib ⁷, aytadiki:

1. Marqus Injili: Iso Masihning vafotidan 80 yil o'tib yozilgan. Kelib chiqishi Masih bilan uchrashgan rivoyatchilar orqali yoki u bilan birga yashaganlar bilan uchrashgan rivoyatchilar orqali to'plangan. Uning materiallari juda kam. U Yuhanno Cho'qintiruvchining qissasi bilan boshlanadi. So'ngra Masihning sayohatlari va keyingi hayot tarzi haqida so'z boradi.
 2. Matto Injili: I asrnig oxirlarida yozilgan. Marqus Injiliga qaraganda ko'proq materiallar mavjud. U Masihning tartib bilan joylashgan so'zlari, Masihning nasabnomasi, va Eski Ahdda yo'q bo'lgan ba'zi narsalarni o'z ichiga oladi.
 3. Luqo Injili: II asrda yozilgan. Materiallarning yarmidan ko'pi boshqa Injilda uchramaydigan yangi narsalarni o'z ichiga oladi.
 4. Yuhanno Injili: bu kitobga nasroniylik dinining falsafiy urug'larini o'z ichiga olgan deb qaraladi. II asrning boshlaridayoq uning birinchi qismi yozilgan.
- **Havoriylarning faoliyatlari:** Havoriylarning say-harakatlari, ayniqsa missionerlikni o'z ichiga oladi.
 - **Maktublar:** Ular Masihning havoriylari tomonidan turli xalqlarga yetqazilgan nashrlar va va'zlardan iborat bo'lib, ularni xristianlik diniga da'vat qiladi. Bu xabarlar xristian ilohiyotining umumiy asosi hisoblanadi.
 - **Yuhanno Cho'qintiruvchining vahiylari:** Va'zlar va bashoratlardan iborat.

Yangi Ahdning induktiv shaklda shakllanganligi bois, uni din tarixchilari Eski Ahdga o'xshatishadi. Apostol tog'i yo'q bo'lib ketgandan beri iymonda foydali bo'lgan ko'plab kitoblar va muqaddas shaxslarga, xususan avliyo Pavelga tegishli bo'lgan maktublar paydo bo'ldi. Bu kitoblar soni I asr oxiri – II asr boshlarida ko'paydi. Ular birgalikda eng hayratlanarli xilma-xillikni tashkil etadi. Chunki uning har bir muallifi o'ziga xos did bilan ifodalagan va o'z rejasi bo'yicha tatbiq qilgan. Mark Injili, Yuhanno Injili, Rumliklarga

⁷ Ustoz Mahmud Abu Al-Fayd: "Ad-din al-muqorin" 126-bet

Imom Muhammad Abu Zahro: "Muhadarot fin-nasroniyyati" 43-bet va undan keyin betlar

Doktor Urfon Abdulhamid: "Nasroniyyat" 73-bet va undan keying betlar,



maktub va Yuhanning vahiysini o'qish, ular bilan shug'ullanish va ulardan foyda olish buning isbotidir. Har bir cherkov ushbu kitoblar to'plamidan o'z cherkov a'zolari va erkin tinglovchilarini o'qitish uchun o'z to'plamini tanlashi kerak edi.

Bu yerda olim yozuvlar va kitoblarning ko'pligi haqidagi masala bundan oldin xristianlar tomonidan bartaraf etilmaganini ta'kidlaydi. Patriarxlar va ruhoniylar yeg'ilishlarida ushbu kitoblar masalasi o'rganilgan. Milodiy II asrda ular tabiiy ravishda bu maxsus guruhlar o'rtasida qandaydir kelishuvga erishishga harakat qila boshladilar. Sababi ular barchaga umumiy cherkov qonunini o'rnatish zarurligini his qila boshlashgan edi. Chunki bid'atchilar kitoblarni nashr etishar va ularni havoriylarga nisbat berishar edi. Yoki Injil ruhidan uzoq bo'lgan bid'atlarni oqlash uchun Injilning noto'g'ri versiyalarini ko'chirishdi. Avliyo Pavlusni yagona haqiqiy havoriy deb bilgan "Marqion" ning izdoshlariga kelsak, ular o'zlari uchun havoriy Pavlusning maktublari va Luqo Injilidan boshqa hech narsani o'z ichiga olmagan cherkov qonunini tuzdilar. Buyuk cherkovga mansub katolik nasroniylariga kelsak, ular o'sha davrda mutloq tarqalayotgan kitoblarni xristianlarga xos bo'gan to'g'ri e'tiqodga asoslangan holda tasdiqlaganlar. Xristianlar II-IV asr oralig'ida o'zlaridagi kitoblar ro'yhatidan ko'plab kitoblarni chiqarib tashlashgan.

Demak yuqoridagi malumotlardan ma'lum bo'ldiki, ushbu olim Muqaddas manbalarga oid tadqiqotida ularning bugungi kungacha ba'zi o'zgarishlarga uchraganini ta'kidlashi bilan bir qatorda, uning tarkibidagi kitoblar sonining ko'pligi yuzasidan bergan o'ziga xos ma'lumotlari bilan boshqa tadqiqotchi olimlardan ajralib turadi.